

**«TASDIQLAYMAN»**  
Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” IK  
direktori  
E.Abduvaliyev  
«      »        2022 y.

**“Zangiota tumani Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston  
Milliy universiteti qoshidagi aniq va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashtirilgan maktabini ixtisoslashtirilgan maktabiga  
moslashtirib rekonstruksiya qilish” obyektiga**

## **LOYIHA TOPSHIRIG’I**

T/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Ob'ektning nomi	<b>Zangiota tumani Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabini ixtisoslashtirilgan maktabiga moslashtirib rekonstruksiya qilish</b>
2	Qurilish joyi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 martdagi 106-sonli Farmoni; Toshkent viloyati hokimining 2022yil 20 maydagi 184-10-0-F/22-sonli farmoyishiga asosan belgilanadi.
3	Buyurtmachi	Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi.
4	Ishlab chiqish uchun asoslar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 martdagi 106-sonli Farmoni; Toshkent viloyati hokimining 2022yil 20 maydagi 184-10-0-F/22-sonli farmoyishiga asosan.
5	Qurilish turi	Rekonstruksiya
6	Moliyalashtirish manbai	Respublika budjeti mablag'lari.
7	Qurilishni taxminiy bahosi mln.so'm	5 000 000 000 so'm.
8	Loyiha tashkiloti	Belgilangan tartibda tanlov(tender) savdolari asosida aniqlanadi.
9	Pudrat tashkiloti	Belgilangan tartibda tanlov(tender) savdolari asosida aniqlanadi.
10	Ob'ektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, quvvati, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy yoki umumiy binolar, ularning vazifalari (qavatlar soni, seksiyalar va kvartiralar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyati).	Loyihalashda quyidagi talablar asosida loyiha yechimlari ishlab chiqilishi lozim: -majmua binosi - turli xil konfiguratsiyadagi aralash qavatlar soni (2-3-4-qavatli, muhandislik tarmoqlari uchun yer osti texnik yerto'lali); Iqtisoslashtirilgan maktablar majmuasini tashkil etuvchi asosiy bino va inshootlar: <b>1. Ma'muriyat va jamoat xonalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• qabulxona va kanselyariya;</li> <li>• maktab direktori;</li> <li>• o'quv ishlari bo'yicha director o'rinbosari;</li> <li>• maxsus fanlar bo'yicha direktor o'rinbosari;</li> <li>• ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari</li> <li>• yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida va chaqiriqqacha harbiy tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari;</li> <li>• xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari</li> <li>• bosh hisobchi;</li> <li>• hisobchi (iqtisodchi);</li> <li>• kassa;</li> <li>• kadrlar bo'yicha menedjer kadrlar bo'limi;</li> <li>• o'qituvchilar xonasi;</li> <li>• kutubxona mudiri;</li> <li>• yoshlar yetakchisi;</li> <li>• psixolog;</li> <li>• katta tarbiyachi va tarbiyachilar xonasi;</li> <li>• vrach xonasi;</li> </ul>

- hamshira va birinchi tibbiy yordam xonasi;
- ijodiy-ma'daniy ishlar bo'yicha targ'ibotchi xonasi;
- Laborantlar xonasi;

## **2. Texnik va xizmat ko'rsatish bo'limi**

- santexnik, elektromonter, bog'bon, va boshqa binoga texnik xizmat ko'rsatuvchi ishchi xodimlar xonasi;
- farroshlar xonasi;
- qorovul va nazoratchilar xonasi;
- haydovchilar xonasi;
- kir yuvish, tikish va poyafzal ta'mirlash bo'limi xonalari;
- elektr taqsimlash xonasi (электрощитовая);
- texnik xonalar (Узел ввода, венткамера и т.д.);

## **3. Maxsus ixtisoslashgan va umumiy o'quv xonalari:**

- sinfdan tashqari mustaqil shug'ullanish uchun kompyuter zallari, dizayn va programmistlar xonalari;
- chet tili va o'zbek tili xonalari;
- lingafon xonalari;
- sotsial fanlar xonalari;
- gumanitar fanlar xonalari;
- matematika fani xonalari;
- tasviriy va amaliy san'at xonalari;
- boshlang'ich harbiy tayyorgarlik xonalari;
- tarbiyaviy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar xonalari;
- dam olish va boshqa yordamchi xonalar;

## **4. Vestibyul va rekreatsion hududlar:**

- tambur;
- registrator;
- garderob;
- vestibyul;
- yo'laklar;
- amfiteatr;
- mustaqil shug'ullanish uchun hududlar, terrasa;
- kovorking zona;
- startap xonalari;
- qiz va o'g'il bolalar mehnat ustaxonalari;
- faollar zali;

## **5. Oshxona bo'limi:**

- umumiy ovqatlanish zali;
- tarqatish joyi;
- tayyorlash bo'limi;
- oshxona va zal idishlarini yuvish xonalari;
- mahsulotlarni saqlash va muzlatgich xonalari;
- hojatxona va xodimlar xonalari;

## **6. Sport zal :**



		<ul style="list-style-type: none"> <li>• sport zal;</li> <li>• kiyinish xonalari o'g'il va qiz bolalarga;</li> <li>• hojatxona va yuvinish xonalari;</li> <li>• murabbiy xonalari;</li> <li>• sport anjomlarini saqlash xonalari</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>7. O'quvchilar yotoqxonasi, murabbiy va mehmonlar uchun kichik mehmonxona</b></p>
11	<p style="text-align: center;">Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardoqlashga talablar.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hududiy rejalashtirish va kompleks yechim tanlashda ajratiladigan yer maydonlarining belgilangan miqdor birliklaridan oshib ketmasligi va har bir hudud maydoni imkoniyatlaridan unumli foydalanish omillarini ko'zda tutish lozim;</li> <li>• Ixtisoslashtirilgan maktablar konstruktiv yechimini tanlashda, xorijiy malaka va tajribalarga tayangan holda va mahalliy qurilish mahsulotlaridan unumli foydalanilib asosli, eng arzon va maqbul yechimlar tanlanishi lozim;</li> <li>• Ixtisoslashtirilgan maktablar arxitekturaviy-me'moriy yechimini tanlashda respublika miqiyosida qurilishi rejalashtirilgan har bir hudud ijtimoiy va me'moriy-madaniy ananalari, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul kompleks yechim tanlanishi lozim;</li> <li>• Binolar, xonalar, ularning maydonlarini joylashishi bo'yicha loyihalashda texnologik va arxitekturaviy-me'moriy rejalashtirishda o'quv xonalarini maqsadiga, funksional joylashtirishda (зонирование), tabiiy yorug'lik tushishiga va shamollatishga e'tibor berish lozim;</li> <li>• Kompleks tarkibiga kiruvchi bino va inshootlar loyihaviy yechimlarini bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyuldagi PQ-5188-sonli qarorida keltirilgan maqsadlar uyg'unligini ta'minlash, xususan: <ul style="list-style-type: none"> <li>-maktab kutubxona kompleksini A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning elektron axborot-kutubxona fondiga va yetakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash, o'quvchilarga mazkur kutubxonalardan keng foydalanishga imkon yaratish;</li> <li>-o'quvchilarning liderlik, tizimli tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, loyihalarni boshqarish ko'nikmalariga o'rgatish;</li> <li>-malakali mutaxassislar, mentorlar(ustozlar), ekspertlar va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarni jalb etgan holda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv IT ta'limi joriy etilishini ko'zda tutish;</li> <li>-maktab o'quvchilarining soni sinfda 20 nafardan oshmasligini ta'minlash;</li> </ul> </li> </ul> <p><b>Tashqi pardoqlash ishlarida:</b>  <b>tarz-</b>zamonaviy materiallardan foydalangan holda zamonaviy ko'rinishda ishlab chiqish kerak;  <b>sokol</b> –muzlashga chidamli keramgranit;</p>

		<p>-tashqi devorlarni suvoq qilish, rangli buyoqlarda bo'yoqlash          -binoning karniz qismlarini tunukabond bilan qoplash;          -fasadni bezatish maqsadida dereza atroflarini fibrobeton yoki penopolistrol bilan o'rash;          -binoga asosiy kirish qismida (крыльцо), pandus va tambur ko'zda tutilishi;          -derazalar- deraza romlari PVXdan bo'lib, ikki kamerali oynali, xonani tabbiy shamollatish uchun fortochka yoki derazani murakkab mexanizmlilik ochish usulida ishlash.          -ruxlangan tunika (оцинкованная) yasalgan tashqi deraza tokchalari o'rnatish;          -tashqi eshiklar ishlatish maqsadlariga qarab tanlash;  <b>Ichki pardoqlash ishlarida:</b>          - shift - gipsokarton yoki armstrong yoki boshqa dekorativ shift qoplamalaridan, suvli yoki akril bo'yoqlardan foydalanish;          -devor - suvli yoki akril bo'yoqlardan foydalanish;          -texnik xonalar devorlari va shiftlar - suvli bo'yoqlardan foydalanish;          -hojatxonalar devorlari-keramik plitkalar;          -eshiklar –MDF qalinligi kamida 6,0 mm va kengligi -1,2 m bo'lgan sinf eshiklari oynali;          -sanuzellarda eshiklar oynasiz MDF;          -oshxona eshiklari- alyumin profil          -arxiv, server xonasi, elektr boshqaruv xonasi va boshqa texnik xonalar- o'tga chidamli materialdan (metall) eshiklar o'rnatish;          -eshik qulflari-zamonaviy, bardoshli, yuqori sifatli bo'lishi;          -pol (zamin) - sinf xonalarida va yo'laklarda (qalinligi 2mm dan kam bo'lmagan) PVX "Relin");          -plintus MDF yoki yog'ochdan/ (balandligi 10 sm)          - umumiy foydalanish joylari– pollari sirti ishlov berilgan keramogranit qoplamalaridan;          -Sanuzel, dush, oshxona xonalarida - keramik plitkalar;          -Sportzalda –pol qoplamasi maxsus sportzali uchun tayyorlangan Rezinali qoplamadan;          -Texnik xonalar pollari beton qoplamalaridan;          -zinapoyalar - marmar yoki oq rangli aglomerat (bir butun) materialidan, (zinapoyalar pardozi plitalari (ступенка) qalinligi-3,0 sm, zinapoya osti pardozi plitalar (подступенка) qalinligi-2,0 sm);          -binoga kirish qismidagi granit qatlamlar sirtiga qumlam apparati bilan ishlov berish yoki bruschatka o'rnatish;</p>
12	<p>Konstruktiv yechimlarga, yuk ko'tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar.</p>	<p>-dizayn va qurilish yechimlari zamonaviy dizayn va qurilish tajribasini hisobga olish;          -barcha tuzilmalar va materiallar mavjud standartlar va normativlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanish;          -loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta'sirni hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo'llash;          -me'moriy jihatdan ifodali, texnologik va energiyani tejaydigan zamonaviy dizayn texnologiyalardan foydalanish;          -dizayn qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanish;          -favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda</p>



		<p>qurilish inshootlarini izchil qilashdan himoya qilishni ta'minlash.</p> <p><b>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-poydevor - monolit temir -beton;</li> <li>-konstruktiv sxema – temir betonli karkas, devorlar pishgan g'isht yoki gazbetonli (gazbetonli, ko'pikli beton va boshqalar) materiallar bilan to'ldirilgan.</li> </ul> <p>Tashqi devor issiqlik saqlash qatlamida pishgan g'isht yoki gazabeton bo'lgan (mineral uteplitel zichligi 125 m3) qo'llansin. Tashqi devorlarning qalinligi issiqlik muhandisligi hisob-kitoblari asosida olinishi kerak КМК 02.01.04-2018.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-bo'linmalar (peregorodkalar) – metall karkas larga 12,5mm gipsokartoni ikki tomonidan ikki qatlamda o'rnatilsin;</li> <li>-bo'linmalar (peregorodka)- sanuzel xonalarida - qalinligi 120 mm bo'lgan mustahkamlangan (армированный) g'ishtdan;</li> <li>-bostirmalar (perekritiya) – yig'ma (сборный) temir beton plitalar;</li> <li>-tom qoplamalari – shomollatiladigan yog'och(yoki metal konstruksiyalik) chordoq va qalinligi 0,5 mm dan kam bo'lmagan profnastil qoplamalari;</li> <li>-tom qismini issiqlik va namlikdan himoyalash– penopolistrol qalinligi issiqlik muhandislik hisob kitobiga asoslangan holda olinsin;</li> <li>-issiqlik izolatsiyasi (teploizolyatsiya) – 2 qatlam, qalinligi 50mm bo'lgan stekvoloknoli plitalar qo'llanilsin;</li> </ul> <p>Zinapoyalar – monolit, temir to'siqlari 1.2m balanlikda o'rnatilsin. To'siqlar 2ta tutqichdan iborat bo'lib har xil baladlikda bo'lishi kerak. (h=0.90m va h=1.2m)0.90m boshlang'i sinflar qavatlar uchun.</p> <p>Yomg'ir suvlar ketishi- tashqi, polimer qoplamali ruhlangan tunika (otsinkovannaya metall) quvurlardan yasalgan drenaj lotok va drenaj quvurlari bo'ylab tashkil etilsin;</p>
13	<p>Muxandislik va texnologik asbob-uskunalarga, texnologik jihozlarga qo'yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati.</p>	<p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p><b>Elektr ta'minoti:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-elektr ta'minoti ishonchliligi darajasiga ko'ra – II toifali ;</li> <li>-energiya tejash choralari ko'rish;</li> <li>-binoning elektr yoritilishini uch tolali (yonmaydigan) mis sim yordamida loyihalash, QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek, elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga muvofiq, avariya bo'lmaslik holatini ta'minlash;</li> </ul> <p>Elektr energiyasini hisobga olish uchun quvvatni avtomatik boshqarish va o'lchash tizimini (АСКУЭ) ta'minlash;</p> <p>elektr yoqish moslamasi (включатель) = 0,90 m, rozetkalarini 0,40 m pol sathidan balandda o'rnatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-sinflarga elektr energiya sarfini tejovchi (LED) yoritgich (chiroqni) o'rnatish;</li> <li>-zaruriy deb hisoblangan holatlarda muqobil energiya ta'minotlarini ko'zda tutgan holda quyosh panellari,dizel generator va boshqa loyihaviy yechimlarni ko'zda tutish; lozim.</li> </ul> <p><b>Isitish va sovutish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Binoni isitish o'zining modulli qozonxonasidan loyihalashtirilishi;</li> </ul>

-Quvurlar PVX qurilish materiallaridan; Quvurda suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolatsiyasini ta'minlash;

-Quvur liniyalarini yotqizish devor (kanallarida) yashirin bo'lishi;

-Radiatorlar-bimetal;

-Xonalar derazalarni ochilishi bilan tabiiy va mexanik shamollatish ko'zda tutilishi;

-Loyihalashda, QMQ 2.01.18-2000\*, QMQ 2.04.05-97 qo'llanma talablariga rioya qilish;

-Alohida yechimlarga ko'ra eng ma'qul va samarali sovitish tizimlari(кондиционирование)ni loyihalash (Чиллер, канальное кондиционирование, система ВРФ или другие);

**Suv ta'minoti va oqova suv tarmog'i:**

Suv ta'minoti QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.02-97 ga muvofiq amalga oshirilishi;

-Ichki sovuq ichimlik suvi polipropilen (ПП) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi;

-Oqova suv va ichimlik suvining magistral quvurlarini o'tkazish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Sovuq suv tizimi quvurlari o'rnatish devor to'siqlarining kanallarida yashirin bo'lishi;

-Kirish joyida sovuq suv sarfini o'lchashi ta'minlanishi kerak;

-Ichki issiq suv ta'minoti tizimi polipropilen (ПП) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi;

-Oqova suv tarmog'i (канализация) va ichimlik suvining magistral quvurlarini o'tkazish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Issiq suv iste'molchilariga quvurlar va chiqishlarni yotqizish devor to'siqlarining kanallarida yashirin bo'lishi;

-Quvurda suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik himoya qatlami bo'lishi ta'minlash;

-Tashqi birlashgan kommunal va ichimlik suvidan yong'inga qarshi suv ta'minotini ta'minlash;

-Agar tashqi kommunal va ichimlik suvi ta'minotidagi bosim o't o'chirish ehtiyojlari uchun etarli bo'lmasa, yong'inga qarshi nasos stantsiyasini ta'minlash;

Yong'inga qarshi quvurlar ГОСТ 10704-91 bo'yicha po'lat quvurlardan yasalgan bo'lishi;

-Yong'inga qarshi suv ta'minoti uchun asosiy quvurlarni o'tqazish shaxtalarda amalga oshirilishi;

-Xonalarda ko'ndalang quvurlarni yotqizish polning ostki qismi va shiftning osti orqa qismidan amalga oshirilishi;

-Oqova suv tizimi QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.03-97 ga muvofiq amalga oshirilishi;

-Ichki oqova suv tarmoqlari yuqori quvvatli va gigienik xususiyatlarga ega PVX quvurlardan yasalgan bo'lishi;

-Oqova suv chiqishini hudud ichidagi oqova suv tarmog'iga chiqishi va asosiy ulanish tarmog'iga bog'lash ta'minlanishi ;

-Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda oqova suv quvurlarini tozalash imkoniyatini ta'minlash;

- Sanuzel xonasidagi traplar xonaning chet burchagida o'rnatish;

-Suv va suvoqova quvurlarlar(yong'in xavfsizligi suv quvurlaridan tashqari) devorlarga yashirin holatda o'rnatilsin;



		<p>-Yomg'ir suvlari drenaj quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizib, ularning rangi bino fasadi rang sxemalariga muvofiq tuzilishi;</p> <p>-Sovuq davrda quvurlarda suv muzlashining oldini olish uchun quvurlarni isitishni ta'minlash;lozim.</p> <p><b>Kompleks xavfsizlik tizimi:</b> Amaldagi me'yor va talablarga muvofiq, loyihada binoning yong'in signalizatsiyasi va ogohlantirish tizimi, hamda video kuzatuv bilan jihozlanishi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. "Internet" tarmoqlariga ulanish texnik shartlarga asosan amalga oshiladi/</p>
14	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga talablar	<p>Ishchi loyihada maktab hududini obodonlashtirish bo'yicha ko'yidagilar nazarda tutilsin:</p> <p>-Maktab hududi chegarasi bo'ylab bloklardan devor, metall panjara to'siqlar o'rnatish;</p> <p>-maktab kompleksi hududidi yo'laklarni asfalt, beton va bruschatkadan foydalanib ta'mirlash, bino atrofi otmostkalari ta'mirlash;</p> <p>-maktab hududida irrigatsiya ishlarini amalga oshirish;</p> <p>-tashqi yorug'lik tizimini o'rnatish;</p> <p>-maktab hududini obodonlashtirish, sport maydonchalari (yugurish yo'lakchalari, sport o'yinlari maydonchalari) qurish.</p>
15	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	<p>Loyihalashtirish topshirig'i- buyurtmachi tomonidan beriladi. Tender tanlov savdolari shartlariga asosan ART-1.2; topografik (M 1:500),muhandislik qidiruv ishlari, texnik shartlar loyiha tashkilotlari tomonidan olinadi zaruriy holatlarda buyurtmachi tomonidan buyurtma asosida olinishi lozim;</p>
16	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli Qarorining 4-chi bandiga asosan, 2021 yil 01-oktabridan boshlab, qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirilib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar, hamda o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakillantirilsin.</p> <p>Narxlar joriy qiymatlarda, SHNQ 4.01.16-09 "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" talablari asosida belgilanadi.</p>
17	Loyihalashtirilayotgan ob'ekt tarkibi	<p><b>1.Shaharsozlik hujjatlari</b> (Umumiy izoh qaydnomasi(OI3), Bosh reja va obodonlashtirish(TII),Qurilishni tashkil etish(PIOC) loyihalari);</p> <p><b>2.Umumqurilish qismlari</b> (Arxitektura-me'moriy (qurilish rejalashtirish)qismi rejalashtirish qismi(AP,AC), Konstruksiya -me'moriy qurilish qismi(KP),Konstruktiv hisob-kitob, Texnologiya qismi(TX), Isitish va sovitish tizimlari (OB), Suv va oqova suv tarmoqlari(BK), Elektr tarmoqlari(EO), Yong'indan xabar berish va ogohlantirish(IIIC), Tashqi va ichki (pardozlash) dizayn yechimlari va бошқалар);</p> <p><b>3.Past kuchlanishli tarmoqlar</b>(Videokuzatuv tizimlari (BH), Kompyuter va aloqa tarmoqlari(CKC,Tv,IP-Tv,TI), Kirish va chiqish nazorati tizimlari(CKYD) va бошқалар);</p>




		<p><b>4.Tashqi muhandislik tarmoqlari</b>(Tashqi suv va oqova suv tarmoqlari (hududiy va hududdan tashqari tarmoqlar)(HBK), Issiqlik ta'minoti va issiqlik mexanikasi(TC, TM), Sovitish tizimi tarmoqlari(XC), Gaz ta'minoti(ГC), Tashqi yoritish tizimi(ЭH) Tashqi elektr ta'minoti 0,4-10KB(ЭC-1,2), Elektr energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi(ACKYЭ) Tashqi aloqa va internet ta'minoti (HCC));</p> <p><b>5.Kapital qurilish loyihalari smetalari</b>(Jamlangan smeta hisobi(CCP));</p>
18	Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida Energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161 -sonli qaroriga muvofiq, ob'ektning energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy innovatsion echimlarni taqdim etish. energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsion materiallar va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash.
19	Aholini nogironligi bo'lgan va kam harakatlanuvchi guruhlar hayoti faoliyati sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNQ 2.07.02 -07 talablarida ko'rsatilgan, nogironligi bo'lgan shaxslarning va xarakterlanishi cheklangan isonlarni ob'ektga kirish-chiqishlarini ta'minlash va binoda bo'lishlari vaqtida xarakterlanishi bo'yicha yaratiladigan sharoitlar bo'yicha qo'shimcha talablarni ko'rsatish.
20	Yong'inga qarshi kurash va xavfsizligi bo'limini ishlab chiqish bo'yicha talablar	Yong'inni o'chirish amaldagi normiativ hujjat SHNQ 2.04.09-07 -"Yong'indan himoya tizimlari. Avtomatik yong'in signalizatsiyasi va yong'inga qarshi qurilmalari" talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligi talablari SHNK 2.01-04 ga muvofiq bajarilishi kerak.
21	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	Ob'ektning Planshet va tashqi va ichki dizay albomlari tayyorlanadi. Binoning fasadi Qurilish Bosh boshqarmasi bilan kelishiladi. (Binoning fasad qismini tasdiqlash bayonnomasi)
22	Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) – to'liq hajmda SHNQ 3.01.01 ga muvofiq ishlab chiqiladi.(Проект ПИОС).
23	Qurilishda mualliflik nazorati	Mualliflik nazoratini olib borish Loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib boriladi.Ob'ektga pudratchi yoki Buyurtmachi tomonidan masala ko'tarilganda, loyihachining ob'ektga borishi zaruriy shart hisoblanadi.
24	Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar	Loyiha smeta hujjatlari huddudiy O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi huzuridagi hududiy sanitariya epidemologix osoyishtalik agentligi, O'zbekiston Respublikasi FVV hududiy Davlat yong'in nazoratini tashkil etish bosh boshqarmasi, Qurilish Bosh Boshqarmalari bilan va tashqi muxandislik tarmoqlari loyihasini mutasadi (elektr, suvoqova, gaz ta'minoti va boshqalar) tashkilotlar bilan kelishish shart.
25	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'limlarining tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar	Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nusxada (qog'oz yoki elektron shaklda) taqdim etiladi. To'g'rilangan hujjatlarning buyurtmachiga taqdim etiladigan nusxalari soni ushbu SHNK-1.03.01-20 ning 13.7 bandi talablariga mos ravishda bo'lishi shart, ya'ni 3 nusxada.

	Buyurtmachi tomonidan qo‘shimcha nusxalar olish bo‘yicha, loyiha tashkiloti bilan kelishgan xolda, shartlar qo‘yilishi mumkin (shu jumladan ularning elektron nusxalari). Bunda elektron hujjatlarning formatlari va ularni tashish vositalari xam kelishib olinadi.
--	--

**Buyurtmachi:**

**Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” IK vakili**



---